

KO'PKARI

Namangan Viloyati tarixi va madaniyati

davlat muzeyi ilmiy xodimi

Yigitaliyeva SH

Milodollad avvalgi III-II asrlardayoq shakllana boshlagan “Ko’pkari”- (Qirg’izlarda “qoqi pari”, Tojiklarda “bo’zkashi” ” ko’pkarichi”) chavandoz topqirlik ,epchillik talab etgan.

Turkiy tillarda bu o’yin nomi o’z etimologik ma’nosini yo’qotib, o’yin inventarining nomi bilan atalishi an’anviylaygan. Masalan turkcha – “uloq”, O’zbekcha – “uloq”, qoraqalpoqcha –“uloq”kabi. O’zbekistonning ba’zi xududlarida o’g’il tug’ilganida farzandlarining soch oldirish va sunnat to’ylarida osh berilib , ko’pkari uyushtirilgan . Unda bir- biriga yaqin bo’lgan bir necha qishloq chavandozlari qatnashib o’yin qoidasiga binoan ikki qismga bo’linishgan .Bu qoida yarim o’troq o’zbeklar orasida urug’-qabilachilik belgilari asosida XX asrning boshlarigacha amalga oshirilgan.

Etnagrafik olim F.Nasriddinov : “uloq Qozog’iston va O’rta osiyo davlatlarida keng tarqalgan xalq o’yini bo’lib , unda asosan bir necha yuzlab otliq va chavandozlar ishtirok etishgani “ haqida yozadi . Tarixiy-etnografik ma’lumotlarda qayd etilishicha , ko’pkari va ulov o’yinlarida ba’zi farqlanuvchi xususiyatlar namoyon bo’ladi. Qashqadaryo va Surxondaryo vohalarida ulov o’yinida , asosan,elchi va buzoq tanasidan foydalanishgan. Chunki echiki va buzoq tanalari qo’y va ho’kiz terilariga qaraganda ancha qulay va mustahkam bo’lgan. Ot tuyoqlari ostida qolganda ham anchagacha chidam bergan .Vohaning ba’zi tumanlaridagi ko’pkari oynadek yorug’ o’tsin dep , oyna ko’rsatilgan . Ko’pkariga ketayotgan chobagon ya’ni chavandozlar oynaga qarashlari shart bo’lgan . Shuningdek, ulovlar va ulovni , ya’ni “zot”ni ko’pkari joyiga olib borayotgan otlarning ikki tomoniga o’yin jarayonida sodir bo’lishi mumkin bo’lgan turli xil noxush xolatlardan

saqlaydi, degan niyatda olov yoqilgan. O'yinda otlarni maydonga kiritish oldidan qizitib olish uchun "qoqma" o'yini uyushtirilgan. Bunda o'rtaga navbat bilan ikki uchta uloq tashlangan. Qoqda 1-2 soat davom etib unda g'olibga sovrin berilmagan. Qoqma tugab otlar sovutilgach, asosiy – o'yin – ko'pkari boshlangan. Hamma chavandozlar jam bo'lgach, o'rtaga avvaldan so'yib tayyorlab qo'yilgan tana tashlanadi. Bakovul ko'pkarini eson-omon o'tgazaylik, dep duo beradi. Bakovullar esa, chavandozlar o'rtasiga uloqni tashlab, ko'pkarining borishini nazorat qilib turadilar. Uloqni yerdan olgan chavandoz o'ynab, yuzlab raqiblar davrasidan uzilib chiqishi lozim bo'lgan. O'yinda eng usta, epchil va kuchli chavandoz uloqni taqim ostiga qattiq bosib oladi va ostidagi qattiq bosib oladi va ostidagi oti sag'risiga qamchi bosib marraga intiladi. Ortidan taqib qilayotgan chavandozlarga oldirib qo'ymasdan uloqni belgilangan ma'lum chiziq (marra)ga keltirib tashlagan chavandoz g'olib sanalagan. Bakavulboshi sovrinlarni e'lon qilgach, g'olib chavandozlarga navbatma-navbat tarqatiladi. G'oliblarga sovrin sifatida qoramol, kiyim bosh, gilam, pul va boshqa qimmatbaho sovg'alar berilgan. Kopkari o'yini xalq ommasining ijodiy mehnati natijasida vujudga kelgan bo'lib, ming yillar davomida turli xil ko'rinishlarda ommalashib, xalqning ijtimoiy hayoti, milliy xususiyatlari, qolaversa, maishiy hayot tarzi bilan bog'liq holda shakllangan. Xalq orasida mashxur bo'lgan chavandozlar haqida qo'shiqlar to'qilib, mardona fazilatlarini dostonlarda o'z aksini topgan.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev N. San'at tarixi. 2t-T.; «San'at» 2001, 89-b.
2. Qurbanova Y. Amaliy san'at buyumlariga badiiy ishlov berishda turli ranglardan foydalanish. BMI. Toshkent – 2014, 104-b .
3. B.Qurbonov, G.Qurbanova Texnologiya Va Dizayn Toshkent -2020, 246-b
4. Sadikova N. O'zbek milliy kiyimlari: XIX–XX asrlar.
– T., 2006.
5. Malikova S.S. Tasviriy san'at tarixi. – T., 2008.
6. Abdullayev N.U. San'at tarixi. 2-tom. – T.: «O'qituvchi»